
Qirguli mavzeida yana bir maskan obod etildi

Qirguli mavzeidagi Kimyogarlar ko'chasidagi madaniy hordiq olish maskani bir necha yillar davomida qarovsiz qoldi. Albatta, holat yuzasidan ijtimoiy tarmoq faollari hamda hududda yashovchi fuqarolar tomonidan bir necha bor murojaatlar kelib tushdi.

Hududni zamonaviy maskanga aylantirish hamda yangi ish o'rinalarini yaratish maqsadida Qudratjon G'ofurov rahbarligidagi "Farg'ona city-stroy" MCHJ tomonidan Kimyogarlar ko'chasi("Madaniyat uyi" ro'parasi)da madaniy hordiq olish maskanini o'z ichiga olgan "Yoshlar mehnat guzari" kompleksini qurish, shuningdek tutash hududni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish uchun yer maydoni ajratildi.

Hozirda tadbirkor tomonidan bosqichma-bosqich qurilish ishlari olib borilib, yakuniy ta'mirlash ishlari bajarilmoqda. Hududdagi manzaralari daraxtlarni saqlab qolish, parvarish qilish, maydonlarni ko'kalamzorlashtirish choralari ko'rilgan.

Kompleksda oshxona, sartaroshxona, savdo, gul va musiqa asboblari do'konlari va boshqa xizmat ko'rsatish ob'yektlarini tashkil etilishi ko'zda tutilgan. "Yoshlar mehnat guzari"da jami o'ttizga yaqin ish o'rinalari yaratiladi. Tez orada kompleksi foydalanishga topshirish rejalashtirilgan.

2024-01-11 10:51:41